
SPORT KLUBI YOSHLARNING SEVIMLI MASKANIGA AYLANMOQDA

Tadbirkor Tolibjon Shokirov tomonidan "Tabassum" mahalla fuqarolar yig'inida zamonaviy poyga yo'lagi tashkillangan. Toshkent shahridagi shunday sport klubini ko'rgan tadbirkor Farg'ona shahrida ham ochishni niyat qilgan.

Tadbirkorning o'z mablag'lari va 100 mln. so'mdan ortiq imtiyozli kredit mablag'lari hisobiga bunyod etilgan zamonaviy sport klubiga Xitoy davlatidan 20 dona katta yoshdagilar va 15 dona kichik yoshdagilar uchun sport mashinalari keltirilgan.

Sport klubida 10 nafardan ortiq ish o'rinlari yaratilgan. Hozirda har kuni bu yerga 100 nafarga yaqin sportsevarlar tashrifi kuzatilmoqda. 500 metrlik yo'lakni bosib o'tish uchun 25 ming so'm to'lanishi belgilangan. Shu masofani bir necha bor aylanishni istagan mijozlar uchun esa chegirmalar qilib berilmoqda.

2023-09-29 10:12:42